

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA NUTQIY
KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

Ilmiy rahbar: A.J.Xo‘jamqulov

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi
va metodikasi yo‘nalishi 1-kurs magistranti .*

Metinova Sakina Husen kizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari yaratilgan. Tadqiqot davomida nutqiy kompetensiyaning mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari shuningdek, ta‘lim jarayonidagi o‘rni tahlil qismlari hamda ta‘lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirishning samarali usullari haqida fikr yuritiladi. Interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va refleksiya jarayonining ahamiyati asoslab berildi. Olingan natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarning nutqiy faolligini oshirish va kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Nutqiy kompetensiya, pedagogik yondashuv, kommunikativ ko‘nikma, boshlang‘ich ta‘lim, interaktiv metodlar, nutq madaniyati, pedagogik muloqot.

KIRISH

Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi nafaqat uning bilim darajasi, balki o‘z fikrini aniq, ravon va ta‘sirchan ifoda eta olish qobiliyati bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nutqi o‘quvchilar shaxsining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda bolalarda nutqiy faoliyat, tafakkur va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi.

Bugungi kunda ta‘lim jarayonidagi muhim omillardan biri o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni shakllantirish hisoblanadi. Bu esa bevosita o‘qituvchining nutqiy kompetensiyasiga, pedagogik mahoratiga, turli didaktik metodlardan unumli va o‘z o‘rnida qo‘llay olishiga ham bog‘liq. Agar o‘qituvchi o‘z fikrini aniq va mantiqiy bayon eta olsa, o‘quvchilar bilimni oson o‘zlashtira oladi, aks holda esa ta‘lim samaradorligi tobora pasayib boraveradi.

Mazkur maqolaning maqsadi –bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslarini aniqlash hamda samarali metodlarni tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Nutqiy kompetensiya tushunchasi pedagogika va lingvistika fanlarida keng o‘rganilgan bo‘lib, u shaxsning muloqot jarayonida til vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish qobiliyatini anglatadi. Ilmiy manbalarda nutqiy kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Ko‘plab tadqiqotchilar o‘qituvchining nutqiy faoliyatini uning kasbiy mahoratining muhim ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, o‘qituvchi nutqi nafaqat axborot uzatish vositasi, balki o‘quvchilarga tarbiyaviy va psixologik ta’sir ko‘rsatish omilidir.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy tadqiqotlarda nutqiy kompetensiyaning quyidagi jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan:

- nutqning aniqligi va ravonligi
- mantiqiylik va izchillik
- intonatsiya va talaffuz
- muloqot etikasi

Mazkur jihatlar o‘qituvchining pedagogik faoliyatida muhim o‘rin egallaydi va ularni rivojlantirish maxsus metodik yondashuvni talab etishi barchamizga ma’lum.

ASOSIY QISM

Nutqiy kompetensiyaning pedagogik mohiyati

Nutqiy kompetensiya – bu o‘qituvchining o‘z fikrini aniq, ravon, mantiqiy va ta’sirchan tarzda ifoda eta olish qobiliyatidir. U bir nechta komponentlardan iborat bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘langan holda faoliyat ko‘rsatadi.

Birinchidan, lingvistik kompetensiya alohida ahamiyatga ega. Bu til qoidalarini bilish, so‘z boyligining kengligi va grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq qurish bilan bog‘liq. Ikkinchidan, kommunikativ kompetensiya o‘qituvchining turli vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini ifodalaydi. Uchinchidan, nutq madaniyati – bu nutqning estetik jihatlariga, talaffuz, ohang va nutq odobi bilan bog‘liqdir.

Shu bilan birga, pedagogik muloqot madaniyati ham alohida ahamiyat kasb etib, o‘zaro munosabatlarini to‘g‘ri tashkil eta olishida namoyon bo‘ladi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari

Bo‘lajak o‘qituvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish quyidagi pedagogik asoslar orqali amalga oshiriladi.

Avvalo, ta’lim jarayonida faol o‘qitish metodlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Interaktiv metodlar talabalarning nutqiy faolligini oshirib, ularni erkin fikr bildirishga undaydi. Masalan, guruhli muhokamalar, savol-javob mashg‘ulatlari va munozaralar orqali talabalar o‘z fikrlarini asoslab berishga o‘rganadi.

Ikkinchidan, amaliy mashg‘ulotlar muhim rol o‘ynaydi. Talabalar nutqiy faoliyatga bevosita jalb etilganda, ularning nutqiy ko‘nikmalari tezroq rivojlanadi. Prezentatsiyalar, chiqishlar va rolli o‘yinlar bu borada samarali vosita hisoblanadi.

Uchinchidan ta’lim jarayonida ijobiy nutqiy muhit yaratish zarur. Talabalar o‘z fikrini erkin bayon qila oladigan muhitda ularning nutqiy faolligi ortadi. O‘qituvchi esa bu jarayonda yo‘naltiruvchi ya’ni fasilitator rolini bajaradi.

To‘rtinchidan, refleksiya jarayoni muhim ahamiyatga ega. Talabalar o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishining samarali metodlari

Zamonaviy pedagogikada nutqiy kompetensiyani rivojlantirish uchun turli metodlardan foydalaniladi. Ularning eng samaralilari quyidagilardir.

Storytelling metodi talabalarda nutqiy faollikni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu metod orqali talabalarni izchil va mantiqiy bayon qilishni o‘rganadi.

Debate ,ya’ni munozara metodi esa talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Bu metod amalga oshirilayotgan paytda ular o‘z fikrini himoya qilishga va boshqalarning fikrini tahlil qilishga o‘rganadi.

Microteaching metodi bo‘lajak o‘qituvchilarga kichik darslar o‘tish orqali o‘z nutqini mashq qilish imkonini beradi. Bu usul ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini yanada oshiradi.

Role play metodi esa real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va shu kabi vaziyatlarda o‘zini qanday tutish kerakligi haqidagi ilk ko‘nikmalar shakllanishida muhim o‘yin faoliyat turidan biridir.

Natijalar

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqorida keltirilgan pedagogik yondashuv va metodlardan foydalanish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nutqiy kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi . Ular o‘z fikrlarini aniq va mantiqiy bayon eta boshlaydi, nutqiy xatolar kamayadi va muloqot madaniyati shakllanadi.

Shuningdek ,talabalar o‘rtasida nutqiy faollik oshadi, ular dars jarayonida faol ishtirok eta boshlaydi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ,bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish ta’lim tizimining muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda interaktiv metodlar, amaliy mashg‘ulotlar va ijobiy nutqiy muhit muhim rol o‘ynaydi. Nutqiy kopetensiyani tizimli ravishda rivojlantirish o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshiradi va ta’lim samaradorligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

- 1.K.Qosimova .Ona tili o‘qitish metodikasi.
- 2.N.Mahkamov .Nutq madaniyati va davlat tili.
- 3.B.To‘xliyev.Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari
- 4.J.Yo‘ldoshev.Pedagogik texnologiyalar.
- 5.S.Matchonov .Boshlang‘ch ta’lim pedagogikasi